

Til — millat qiyofasining bir bo'lagi

Xalqimizning ko'p asrlik madaniy, ilmiy-ma'rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo'lgan o'zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir. Mana bir necha kundirki, joylarda O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 32 yillik bayrami keng nishonlanib kelinmoqda. Bugun "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti dekani Sh.Narbaev, Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova, "Yerdan foydalanish" kafedrasida katta o'qituvchisi Z.Hafizovalar tashabbusi bilan "Til — millat qiyofasining bir bo'lagi" shiori ostida she'riy-badiiy kecha o'tkazildi. Tadbirda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Yosh ijodkorlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i Alisher Boymurodov ham ishtirok etdi.



Tadbirda mehmonimiz yig'ilganlarga o'zlarining qiziqarli hazilomiz she'rlari bilan barchani xushnud etdi. Shuningdek, tadbirda fakultetimizning faol iqtidorli tashabbuskor talaba-yoshlari tomonidan tayyorlangan badiiy chiqishlari ajoyib kuy-qo'shiqlari, talaba-qizlarimiz tomonidan ijro etilgan raqslar yig'ilganlarga ko'tarinki rux bag'ishladi. Ushbu tadbirni davomi "Yer resurslarini boshqarish" fakultetning talaba-yoshlari joylashgan 1 - talabalar turar joyida ham bo'lib o'tdi.



YRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti

TIQXMMI matbuot xizmati